

## O'ZBEKISTONDA BANKLAR TIZIMI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

*Ilmiy rahbar: Shakirova Nigora Axralovna,  
TMI, "Statistika va ekonometrika" kafedrası v.b.dotsent  
Abduhamidov Shuxrat Nusratjon o'g'li  
Toshkent moliya instituti Iqtisodiyot fakulteti IBI-71 guruh talabasi*

**Anotatsiya.** Ushbu tezisda O'zbekiston respublikasida banklar tizimi va ularni rivojlantirish uchun nima ishlar qilinmoqda? Markaziy bankning tijorat banklari ustidan nazorati qay darajada kabi savollarga javob olishimiz mumkin. Malumki bank sohasini rivojlantirishda Respublika miqyosida katta ishlar olib borilmoqda

**Kalit so'zlar:** Markaziy bank, qayta moliyalash stavkasi, bankning foiz stavkalar, bank sohasini rivojlantirish tendensiyalari

Markaziy bank o'zi nima? Markaziy bank – mamlakatdagi narx darajasi, bank tizimining barqarorligi hamda to'lov tizimining barqaror faoliyati uchun mas'ul bo'lgan muassasadir. Buning uchun pul-kredit siyosatini olib boradi, tijorat banklar, to'lov tashkilotlar, hamda bir necha nobank kredit tashkilotlar (MKT, lombardlar va boshqalar) faoliyatini litsenziyalaydi, tartibga soladi va nazorat qiladi. Markaziy banklarning rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadiki, ularning kelib chiqishi xususiy banklarga berilgan imtiyozda, ya'ni pul bosib chiqarishda (pul emissiyasi) namoyon bo'lgan.

Iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida markaziy (emitent) va tijorat banklari o'rtasida farq bo'lmagan, lekin pul-kredit tizimi rivojlangan sari bir necha yirik tijorat banklarida banknot emissiyasini markazlashtirish jarayoni yuz bergan, natijada banknotlarni chiqarish monopol huquqi bitta bankka tegishli bo'lib qolgan.

O'zbekiston Markaziy bankining dastlabki nomi O'zbekiston SSR Davlat banki bo'lgan va O'zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun asosida faoliyat ko'rsatgan.

So'ngra 1991 yil 30 sentyabrda Konstitusiyaga o'zgartirishlar kiritilgach, O'zbekiston SSR Davlat banki O'zbekiston Respublikasi Davlat banki deb, 1992 yil 2 iyulda esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki deb nomlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (XXV bob, 124-modda), «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun

An'anaga ko'ra, markaziy bankning 4 ta asosiy vazifasi bor. Markaziy bank:

a) **mamlakatning emission markazi**, ya'ni banknotlar chiqarishning monopol huquqiga ega;

b) **banklar banki, ya'ni kompaniya va muassasalar bilan emas**, balki asosan ushbu mamlakat banklari bilan operatsiyalarni amalga oshirishi: milliy kredit tizimini zarur standartlash va professionallik darajasini saqlagan holda ularning kassa zaxiralarini qonun bilan belgilangan miqdorda saqlash, ularga kredit berish (oxirgi instansiya kreditori), nazorat qilish;

v) **mamlakatning asosiy hisob-kitob markazi.** Bu degani, boshqa banklar o'rtasida o'zaro talablari va majburiyatlarining zachyoti (kliring) asosida naqd pulsiz operatsiyalarini amalga oshirishda vositachi vazifasini bajaradi;

g) pul-kredit siyosati orqali iqtisodiyotni tartibga soluvchi organ.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (XXV bob, 124-modda), «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun Markaziy bank boshqaruvi "Pul-kredit siyosatining 2023 yil va 2024–2025 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" sharhini ko'rsatadi.

Shartlar	Ta'sir ko'rsatuvchi omillar	
	Asosiy ssenariy	Muqobil ssenariy
<b>Tashqi iqtisodiy sharoitlar</b>	Yuqori inflyatsiya, qat'iy moliyaviy sharoitlar fonida jahon iqtisodiyoti avvalgi prognozlardan pastroq darajada o'sishi kutilmoqda. Rivojlangan davlatlar mehnat bozorida tendensiyalar ham o'zgarishi mumkin	Global qiymat yaratish zanjiridagi uzilishlar hamda global retsessiya xavfi ortib borishi sharoitida jahon iqtisodiyoti o'sishi sekinlashishi mumkin
	Neft narxidagi joriy tendensiyalar davom etadi va narxlar tez o'zgaruvchan shakllanadi. 2023 yilda 1 barreli uchun 80–90 dollar atrofida shakllanadi	Jahonda yalpi talabning qisqarishi natijasida global mobillikning sekinlashishi neft narxi pasayishiga hissa qo'shishi mumkin. 2023 yilda 1 barreli uchun 50–60 dollar atrofida shakllanadi
	Pul o'tkazmalari hajmida 2023 yilda biroz pasayish kuzatiladi, 2024 yildan boshlab bir maromdagi o'suvchi dinamika yuzaga keladi	Pul o'tkazmalari 2023 yilda o'tgan yilga nisbatan sezilarli darajada pasayadi. 2024–2025 yillarda o'sish sur'atlari bosqichma-bosqich tiklanib boradi
<b>Ichki sharoitlar va yalpi talab</b>	2023 yildan fiskal konsolidatsiya boshlanadi. Fiskal taqchillikning YAIMga nisbati bosqichma-bosqich kamaytirib boriladi.	Tashqi xatarlarni inobatga olib 2023–2025 yillarda ham fiskal rag'batlantirish saqlanib qoladi. Fiskal taqchillikning YAIMga nisbati ushbu davrda joriy ko'rsatkichlar darajasida saqlanib qoladi
	Xususiy sektorda faollikning oshishi va migratsion oqimlarning ko'payishi hisobiga iste'mol va investitsion talab oshib boradi. Shu bilan birga mehnat bozorida taklif hajmi ham o'sib boradi.	Tashqi talabning pasayishi va valyuta kurslari bilan bog'liq o'zgarishlar investitsion va iste'mol talabini qisqartirishi mumkin. Mehnat bozorida taklif keskin oshishi mumkin.
<b>Global inflyatsion jarayonlar</b>	Asosiy oziq-ovqat narxlar indeksi (FAO) 2023–2024 yillarda 130 gacha pasayishi kutilmoqda. Tovarlar yetkazib berilishi va logistikasida uzilishlar bosqichma-bosqich to'g'rilanib boradi	2023–2024 yillarda global talabning pasayishi narxlarga ijobiy ta'sir qilib, inflyatsion bosimlarni pasaytiradi va oziq-ovqat narxlar indeksi (FAO) 2023–2024 yillarda 100–120 gacha pasayadi.
<b>Tarkibiy islohotlar</b>	Yoqilg'i-energetika sohasidagi islohotlar 2023–2024 yillarda amalga oshiriladi. Korxonalarni transformatsiya qilish jarayonlari mantiqiy yakuniga yetkaziladi va xususiyashtiriladi. Elektr energiyasi va tarmoqli gaz narxlar bosqichma-bosqich bozor narxlariga yaqinlashtirilib boriladi	2023–2025 yillarda elektr energiyasi va tabiiy gaz narxlar inflyatsiya darajasida indeksatsiya qilib boriladi. Korxonalarni transformatsiya qilish jarayonlari asosiy ssenariyga nisbatan sekinroq sur'atlarda davom etadi
	Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 2023 yil 1 yanvardan 12 foizgacha pasaytiriladi (narxlarni o'sishini oldini oluvchi omil). Ichki kapital bozorini rivojlantirish jadallashtiriladi. Mahalliy kompaniyalarning IPO va SPO jarayonlari boshlanadi. Davlat qimmatli qog'ozlar bozorida norezidentlar va rezident jismoniy shaxslarning ishtiroki faollashadi.	Tashqi sharoitlardan kelib chiqib, iqtisodiyot sohaslarida tarkibiy islohotlarni amalga oshirish sur'atlari sekinlashishi mumkin. Asosiy e'tibor iqtisodiy faollikni va iste'mol talabini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. budget xarajatlarini moliyalashtirish uchun qarz mablag'lariga bo'lgan talab oshishi mumkin

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-maydagi 234-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi huzuridagi kredit resurslari kimoshdi savdolari orqali tijorat banklarini qayta moliyalash uchun kreditlar berish tartibini belgilaydi.

Qayta moliyalash — Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati vositalaridan biri bo'lib, u ikkinchi daraja banklarining likvidlik holatini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltiriladi.

## 2-jadval qayta moliyalash stavkasi o'zgarish surati

Ўзбекистон Республикаси  
Марказий банки қайта молиялаш  
СТАВКАСИ

Амал қилган даври	Фонзда
2023 йил 27 октябрь - ҳозирги кунгача	14
2023 йил 15 сентябрь - 2023 йил 26 октябрь	14
2023 йил 28 июль - 2023 йил 14 сентябрь	14
2023 йил 16 июнь - 2023 йил 27 июль	14
2023 йил 5 май - 2023 йил 15 июнь	14
2023 йил 17 март - 2023 йил 4 май	14
2023 йил 27 январь - 2023 йил 16 март	15
2022 йил 16 декабрь - 2023 йил 26 январь	15
2022 йил 28 октябрь - 2022 йил 15 декабрь	15
2022 йил 9 сентябрь - 2022 йил 27 октябрь	15
2022 йил 22 июль - 2022 йил 8 сентябрь	15
2022 йил 10 июнь - 2022 йил 21 июль	16
2022 йил 22 апрель - 2022 йил 9 июнь	17
2022 йил 18 март - 2022 йил 21 апрель	17
2022 йил 21 январь - 2022 йил 17 март	14
2021 йил 10 декабрь - 2022 йил 20 январь	14
2021 йил 22 октябрь - 2021 йил 9 декабрь	14
2021 йил 10 сентябрь - 2021 йил 21 октябрь	14

**Bank foiz stavkasi** - bank ssudasidan foydalanganlik uchun belgilangan haq miqdori; qarz summasiga nisbatan foiz hisobida undiriladi. Uning miqdori kredit turi, muddati va qarzning vaqtida qaytarilishiga bog'liq. Tijorat va davlat banklari Markaziy (milliy) bank boshchiligida kreditlar uchun belgilaydigan Bank foiz stavkasi s. miqdori foiz stavkalarining butun bir tizimini tashkil etadi.

Davlat shu tizimga investitsiyalar darajasi va pul muomalasini tartibga soladigan yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi, ya'ni qulay iqtisodiy kon'yunkturani yaratadi. Bank foiz stavkasi s. qarzning kaysi tarzda va qanday berilishiga ham bog'liq. Uzoq muddatli qarzning Bank foiz stavkasi s. past, qisqa muddatlisiniki yuqori bo'ladi. Qarz yordam tarzida berilganda ham Bank foiz stavkasi s. imtiyozli bo'ladi. Agar korxon va tashkilotlarni o'z qo'lidagi mablag'ni yaxshi ishlatishga undash zarur bo'lsa, Bank foiz stavkasi s. oshiriladi. Bank foiz stavkasi s.ning minimal va maksimal darajasi bor. Minimal darajadagi Bank foiz stavkasi s. bankning harajatlarini qoplab, zarar ko'rmasligini ta'minlashi kerak, maksimali esa bankka el qatori foyda ko'rishni ta'minlashi lozim. Bank omonat depozitlar uchun to'laydigan foiz stavkalari ssudadan foydalanganlik uchun belgilangan foiz stavkalaridan past bo'ladi, bu esa banklarning foyda olib ishlashini ta'minlaydi

3-jadval turli banklarning Avtokredit uchun kredit foizi  
Muddati va dastlabki to'lovi

<b>Bank</b>	<b>Muddat</b>	<b>Dastlabki to'lov</b>	<b>Stavka</b>
"O'zbekiston milliy banki"	36 oy	30 %dan boshlab	28 %
"Xalq banki"	36 oygacha	30 %dan boshlab	30 %
"Asakabank"	36 oy	30 %dan boshlab	26 %dan boshlab
"Aloqabank"	36 oygacha	40 %	28 %dan boshlab
Asia Alliance Bank	35 oygacha	25 %dan boslab	27 %dan boshlab
"Ipoteka-bank"	36 oygacha	25 %dan boshlab	28 foiz
"Turon bank"	36 oygacha	25 %dan boshlab	26 %dan boshlab
"O'zpromstroybank"	36 oygacha	25 %dan boshlab	28 %dan boshlab
"Ipak yo'li banki"	36 oygacha	25 %dan boshlab	23,8 %dan boshlab
"Agrobank"	36 oygacha	25 %dan boshlab	26 %dan boshlab
Universalbank	36 oygacha	25 foiz	39 foiz
Trastbank	36 oygacha	30 %dan boshlab	23,9 %dan boshlab
"Turkistonbank"	36 oygacha	30 %dan boshlab	30 %dan boshlab
"Davrbank"	35 oygacha	30 %dan boshlab	30 %dan boshlab
"Ravnaq Bank"	36 oygacha	30 %dan boshlab	30 %dan boshlab
Orinet Finans Bank	48 oygacha	25 %dan boshlab	26 %dan boshlab
"Savdogarbank"	30 oygacha	30 %dan boshlab	30 foiz
Hamkorbank	36 oygacha	30 %dan boshlab	25 %dan boshlab
Ziraat Bank Uzbekistan	36 oygacha	30 %dan boshlab	32 %dan boshlab
Tenge Bank	36 oygacha	30 %dan boshlab	25,9 %dan boshlab shlab

Ta'kidlash lozimki, respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko'lamini kengaytirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari spektorlarini ko'paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi. Shu bilan birga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik subyektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo'jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ichki valyuta bozorini liberallashtirish sharoitida tijorat banklarining barqarorligi va moslashganligi bo'yicha ularni stress-testlardan o'tkazish natijasida banklarning moliyaviy holati va valyuta pozitsiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator kamchiliklar aniqlandi, o'z navbatida ularning oqibatlari banklarning likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2025 yilda O'zbekiston bank tizimidagi xususiy sektor ulushini hozirgi 18 foizdan 60 foizga oshirish rejalashtirilmoqda. O'zbekiston bank tizimida 33 ta bank, jumladan, 12 ta davlat ulushiga ega, shuningdek, 15 ta xususiy va 5 ta xorijiy banklar mavjud. 1 noyabr holatiga ko'ra, banklar aktivlari 39 mlrd dollarni (419 trln so'm) tashkil etib,



ularning 82 foizi davlat banklariga tegishli. Banklarning majburiyatlari 33 mlrd dollarga (352,6 trln so‘m) yetdi, shundan 40 foizini depozitlar tashkil etadi. «Banklarning moliyaviy barqarorligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, joriy yilning o‘tgan davrida risk darajasi yuqori bo‘lgan aktivlarning o‘sishi 21 foizga — 317 trln so‘mdan 383 trln so‘mga, jami kapitalining o‘sishi 14 foizga — 66 trln so‘mga yetdi. Kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti 1,2 foizga tushib, 17,2 foizni tashkil etdi, bu minimal talablarga javob beradi», — dedi Abrorxo‘ja Turdaliyev. 1 noyabr holatiga banklarning kredit portfelidagi qoldiq 30 mlrd dollarga teng bo‘ldi. 10 oy davomida o‘rtacha 14 foizga o‘shish kuzatilgan, jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar hajmi esa 22 foizga oshgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PF-62-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 06/23/62/0232-son)
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАРКАЗИЙ БАНКИ “ПУЛ-КРЕДИТ СИЁСАТИНИНГ 2023 ЙИЛ ВА 2024-2025 ЙИЛЛАР ДАВРИГА МЎЛЖАЛЛАНГАН АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ” kitobi
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi 1998-yil 9-noyabr 261-son (19/8-sonli bayonnoma)
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (XXV bob, 124-modda), «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida», «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonun
6. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)
7. Очередное заседание Правления Центрального банка по рассмотрению основной ставки назначено на 16 марта 2023 года.